

Hamkasbimiz “Mo‘tabar ayol” ko‘krak nishoni bilan taqdirlandi

2025 5 Mart

Uzbekistan Airways xodimi Nadejda Anikinani “Mo‘tabar ayol” ko‘krak nishoni bilan tabriklaymiz! U aviakompaniyada IT infratuzilmasi, raqamlashtirish va kiberxavfsizlik boshqarmasi Provayderlar bilan o‘zaro aloqalar guruhi rahbari lavozimida faoliyat olib bormoqda.



Vazirlar Mahkamasi tomonidan ta'sis etilgan "Mo'tabar ayol" ko'krak nishoni bilan jamiyat rivojiga, oilani mustahkamlashga, onalik va bolalikni muhofaza qilishga, yoshlarni mustaqillik ruhida tarbiyalashga, qulay ijtimoiy muhit yaratishga munosib hissa qo'shgan xotin-qizlar taqdirlanadi.